

## MATNSHUNOSLIK NAZARIYASIGA OID QARASHLARNING SHAKLLANISHI

**Muhammadxon Hakimov**

*FarDU professori*

**Nargiza Xudoyberdiyeva**

*FarDU magistranti*

XX asr o'rtalarigacha tilshunos olimlar tilning barch sathlari ustida qator ilmiy tadqiqotlar, izlanishlar olib bordi. Shu davrgacha an'anaviy tilshunoslikda nutqning eng yirik birligi sifatida olingen gap bu davrga kelib o'z o'rnini matnga bo'shatib berdi. Fikrdan anglashilgan ma'noni to'liq ifodalash uchun gapning o'zi yetarli emas. Bitta jumlada berilishi ko'zda tutilgan ma'no ham, gaplar birikmasidan kelib chiqqan xabar ham faqat gapdan kattaroq birliklarni hisobga olgan holda olinishi mumkin. XX asrning ikkinchi yarmida matnshunoslik poetika, ritorika, pragmatika, semiotika, germenevtika va boshqalar chorrahasida paydo bo'lган filologik fan. U bir qator fanlar chorrahasida yaratilganiga qaramay, o'zining ontologiyasi, maqomiga ega. Matn nazariyasi bo'yicha tadqiqotlar, odatda, matnning ikki xususiyatiga- izchillik va yaxlitlilikka e'tibor qaratgan. Matn tilshunosligi haqida gapirishdan oldin uning o'rganilish obyektiga to'xtalib o'tishni joiz deb hisoblaymiz. Hozirgi kunda matn termini keng ma'noda qo'llanilsada, tilshunoslik terminalogiyasida, shuningdek, matn lingvistikasiga oid adabiyotlarda uning aniq ta'riflari keltiriladi. Misol uchun "O'zbek tilining izohli lug'ati"da matn : (a. — yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst) 1 Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. 2. Bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi" deb izohlanadi. Hozirgi zamonaviy tilshunoslikda matn va teks atamalari aynan bir ma'noni ifodalasada, ammo ularning kelib chiqish tarixi umuman bir-biriga to'g'ri kelmaydi. . Masalan, teks termini olsak " yozib olingen nutqqa ishora qiluvchi bu so'zning o'zagi materialning strukturaviy xususiyatlarini nomlaydigan tekstura so'zida ham mavjud. Biz bu so'zning izohini lotincha – "gazlama", "tuzilish" ma'nosidan ham bilib olsak bo'ladi . Tekstura esa "gazlamalarda tolalarning muayyan yo'nalishda joylashuvi" . Shu nuqtayi nazardan gaplarning muayyan mazmun ifodalash maqsadida ketma ket va ma'noli joylashuvi rus tilshunosligida teks atamasi bilan yuritilgan. Matn so'zini esa o'zbek tilshunosligida ,xususan, o'zbek tilining izohli lug'atida "yelka" ma'nosini keltirib o'tishadi. Bundan tashqari ba'zi manbalarda matnning "pishiq", "mustahkam", "mahkam" degan ma'nolari ham mavjud bo'lib, u Allohnning 99 unvonidan birining nomiligi shuningdek, payg'ambarimiz Muhammad salollohu alayhi vassallamning unvoni ekanligi ham keltirib o'tiladi. Matn bilan bog'liq ta'riflar, tushuntirishlar, va sharhlar sonini yetarlicha ko'paytirish mumkin, lekin ularning barchasi ham gapdan katta birlikka ishora qilib keladi va uning o'ziga xos xususiyatlarini aytib o'tadi. Bir ta'rif ba'zan boshqa bir ta'rifni to'ldirib kelsa, ba'zan esa biri boshqasini inkor qilishi ham mumkin. Masalan biz yuqorida matn va teks terminlari etimologiyasi bilan tanishib chiqdik. Biz ham aynan shu o'rganganlarimizga asosan Ozarbayjon tilshunosi

Imanov Gulahmedning “Turk matnshunosligi asoslari” darsligidagi “ Matn so’zi lotincha “textus” so’zidan olingen bo’lib, buning taxminiy ma’nosi “qism”, “to’qish” deganidir” deb aytib o’tgan fikrini biroz o’zgartirmoqchimiz. Bizningcha olim shu o’rinda matn emas teks terminidan foydalanganda to’g’riroq bo’lar edi. Shu o’rinda tilimizdagi “metin” so’zi biz izohlayotgan matn so’zi bilan asosdosh desak yanglishmaymiz. Chunki metin so’zi ham “pishiq”, “mustahkam ” degan ma’nolarni ifodalaydi. Bundan tashqari matnning 1. Hayvonning usti, umurtqaning ikki yoni , govda. 2. Bir yozuvning sharh yoki tarjimadan tashqaridagi asosiy tushunchasi kabi ma’nolari ham izohlangan. Shuning uchun ham hozirgi zamon tilshunosligida ma’lum bir axborot mazmunini to’laligicha ifodalab bergen bir necha gaplar yig’indisiga nisbatan matn atamasi yuritiladi. Har qanday mazmun ifodalangan birliklar matnni tashkil qiladi deb qaralmoqda. Badiiy asarlardagi parchalardan tortib rasmiy ish hujjatlarigacha matn deb yuritiladi. T.V. Jerebilaning “Tilshunoslik terminlari lug’ati” kitobida tekstga quyidagicha izoh beriladi: “ teks lotincha “ tektum” degan so’zdan olingen bo’lib, “aloqa”, “birikma” degan ma’noni anglatadi. 1. Birliklari to’liq shakllangan og’zaki va yozma ish turi va uning mazmunni shakllantiruvchi va ifodalovchi nutq birligi. 2. Nutq faoliyatining natijasi. 3. Muayyan muloqot sharoitida paydo bo’ladigan nutq mahsuloti. 4. Matnni adabiy asar bilan aniqlab bo’lmaydi.” Shu ma’lumotlar asosida aytish mumkinki, matn nutq jarayonida ma’lum bir axborotni aniq va batafsil yetkazib berish uchun yaratiladigan nutq birligidir.

70-yillardan boshlab matn tilshunosligi yo’nalishi asta-sekin rivojlana boshlangan bo’lsa ham matn masalasi bilan bog’liq qarashlar 40-yillarda o’rtaga chiqqan. Dastlab g’arb tilshunosligida matn va uning tabiatini o’rganish masalalariga jiddiy e’tibor qaratildi. “Rus tilshunosligida matn (“tekst”) tushunchasining paydo bo’lishi o’tgan asrning 40-yillariga to’g’ri keladi. 1947- yilda A.I.Belich o’zining tilshunoslik fanlarining tasnifiga bag’ishlangan maqolasida til faktlarining grammatik tavsifida ma’no umumiyligi asosida bog’langan va muayyan sintaktik-semantik yaxlitlik tarzida namoyon bo’ladigan gaplarning butun zanjiriga alohida o’rin berilishi lozimligiga va bu “matn” tushunchasining yuzaga kelishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga molik ekanligiga e’tiborni qaratgan, ana shunday gaplar zanjiridagi o’zaro munosabat va aloqalarni tilshunoslikning sintaksis bo’limida o’rganishning maqsadga muvofiqligini ta’kidlagan” A.I. Belich bilan bir qatorda nemis tilshunosligi olimlari ham 40-yillarda matn haqida o’z mulohazalarinin aytib o’tadi. ” Gaplar o’rtasidagi aloqalarni struktural shakllantiruvchi leksik takror, artikl, olmoshlar, ellipsis, fe’l zamonlari, takror bog’lovchilar, so’roq so’zlar kabi eng muhim vositalarni tadqiq etgan ishida K.Boost shunday yozadi: “Bir gapdan boshqasiga tortilgan iplar shu qadar ko’p va shunaday pishiq to’rni hosil qiladiki, gaplarning chatishishi, ularning yagona to’r sifatida o’rib to’qilganligi haqida gapirish mumkin, chunki har bir alohida gap boshqalari bilan chambarchas bog’langan” . Ba’zi adabiyotlarda I.A.Bolduen de Kurtene asarlari matn borasidagi qarashlarning poydevori bo’lib u keyinchalik M.M.Baxtin, V.V.Vinogradov, K.O. Vinokurin, E.D. Polivanov, L.V.Sherba, L.S.Vigotskiylar kabi bir qator olimlarning tadqiqot markaziga aylanganligi aytildi . Haqiqatdan ham, matn tarkibidagi har bir gap uzliksiz va ma’no

uyg'unligiga asoslangan holda tuziladi. M.Yo'ldoshev, S.Muhamedova, M.Saparniyazovalarning "Matn lingvistikasi" o'quv qo'llanmasida esa "Shunga ko'ra tilshunoslikda o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab matn lingvistikasi yo'nalishi tez sur'atlarda rivojiana boshladi. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida matn lingvistikasi bo'yicha davriynashrlar, ilmiy maqolalar to'plami, monografiya, o'quv qo'llanmalari, darsliklar nashr qilindi. Rus tilshunosligida matn lingvistikasiningshakllanishi va rivojlanishida I.R.Galperin, K.Kojevnikova, E.A.Referovskaya, G.Y.Solganik, V.G.Gak, M.V.Lyapon, O.I.Moskalskaya, A.A.Metsler,O .L.Kamenskaya kabi olimlarning xizmati katta bo'ldi" deb aytib o'tadi. 1974-yil Moskvada matn tilshunosligiga bag'ishlangan nazariy konferensiya o'tkazilib, unda bu muammoga bag'ishlangan bir nechta doklat va ilmiy axborotlar tinglandi. Tilshunos olimlarning chiqishlarida matn tilshunosligi masalalarining murakkabligi, ko'p aspektliligi, shu bilan birga, uning tilshunoslikda yangi soha ekanligi qayd etildi. "Shu konferensiyadan keyin matn tilshunosligi borasidagi turli xil qarashlar vujudga keldi. Olimlar endi tilshunoslikning yangi sohasi hisoblangan matn va uning tadqiqiqa qiziqib qolishdi. Tilshunos olimlarining bu boradagi qarashlari 1978-yilgi "Новое в зарубежной лингвистике" asarining sakkizinch tomida o'z aksini topdi. Asarda matn tilshunosligining umumiyligi masalalari, matn kompozitsiyasi, lingvistik matn va poetika kabi qarashlarga oid maqolalari keltiriladi. "Matn tilshunosligi masalalari juda ko'plab tilshunoslarning e'tiborini tortgan. Jumladan, V.Matezius, F.Danesh, V.Dressler, P.Hartman, I.Kovtunova, I.Galperin, K.Gauzenblas, N.Pospe'ov, T.Silman, N.Shvedova, K. Solganik, L.Loseva, O.Moskatskaya kabi xorijlik tilshunoslar matn kategoriyasi haqida muhim fikrlarni ilgari surishgan". Turkologida esa matn 80-yillardan boshlab o'rganila boshlandi.

Turkologiyada matn nazariyasi masalalari G'arb tilshunosligi darajasida o'rjanilmagan bo'lmasada, ammo matn masalalari bilan bog'liq qarashlar G'arb tilshunosligi bilan aynan bir davrda paydo bo'lgan desak yanglishmaymiz. M. Kazimbekning 1846-yilda nashr etilgan "Grammatika" sida "Turkiy tillar boshqa sharq tillari ichida juda kata miqdorni tashkil etsa-da ushbu noqulayliklarni (tinish belgilari va katta harflarning yo'qligi) yengillashtirish uchun bir butunni tashkil etuvchi jumla va gaplarni birlashtirishga harakat qildilar". U mana shu fikrlari bilan murakkab sintaktik butunlik masalasiga juda yaqin keladi. Shunday bo'lsada matn nazariyasi bilan bog'liq aniq fikrlarning o'rtaga chiqishi 70-80-yillarda to'g'ri keladi.

Bundan tashqari tilshunos K.M.Abdullayevning bu boradagi bir qator ilmiy maqolalarini keltirib o'tish o'rini. Olim "ikki yoki undan ortiq mustaqil gaplardan iborat bo'lgan, ichki xususiyatlariga ega bo'lgan murakkab sintaktik butunlikdir. Ammo gaplarning tasodifiy yig'indisi hali matn degani emas, aniqrog'i, yaxlit bir butunlikni yuzaga keltirmaydi. O'ziga xos, takrorlanmaydigan matnni shakllantiruvchi qandaydir tamoyillar bo'lishi lozim". Bu matn haqidagi dastlabki fikrlar bo'lsada Turkologiya, jumladan tatar tilshunosligida matnshunoslik bo'yicha dastlabki kuzatishlar M. Z. Zakiyev ishlarida ko'zga tashlanadi". O'zbek tilshunosligida esa matn bilan bog'liq qarashlar 80-yillardan boshlangan. O'zbek tilshunosligi A. Mamajonov, I. Rasulova, M. To'qsonov, M.

Mukarramov, B. O'rino boyev, R. Qo'ng'uron, J. Iaparov, M. Hakimov, M. Abdupattoyev, E. Qilichev N. Turniyozov, B. Yo'ldashev, D. Xudoyberganova, M. Yo'ldashev, S. Boymirzayeva, M. Qurbonova, U. Nosirova, SH. Yusupovalar matn yuzasidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borishgan. "Birinchilardan bo'lib, akademik G'. Abdurahmonov 1980-yil Toshkentda o'tkazilgan Butunitifoq turkiyshunoslar anjumanida shu mavzuda ma'ruza qiladi." Bu bo'yicha G'. Abdurahmonov va M. Asqarovalarning 1987-yilda nashr qilingan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida shunday deyiladi :"sintaksisning markazi gap haqidagi ta'lumotdir. Har bir gap nisbiy bir tugal fikrni bildiradi, lekin gapdagi fikr tugalligi nisbiydir: ayrim gaplarning mazmuni yakka olinganda aniq to'liq bo'lmaydi. Shuningdek, ular mustaqil holda bo'lganda ham, nutqda boshqa gaplar bilan mazmun jihatdan bog'liq bo'ladi. Nutqning tabiatini, uning aloqa- aralashuv funksiyasi shunday harakatga ega. Biror mavzuda yozilgan bir asarni olsak , undagi mazmun to'liqligicha butun m atndan anglashiladi. Bu yaxlitlik o'z ichida bo'laklarga (qism, abzas-grafik ajratmalar kabi) bo'linadi va har bir bo'lak o'zicha nisbiy butun –yaxlit sanaladi." Bu fikr matn haqida gapirib o'tilgan qisqa fikr bo'lsa matn bilan bog'liq barcha nazariy qismlarni umumlashtirgan darslik A. Mamajonov tomonidan amalga oshirildi. "A.Mamajonovning 1989 yilda nashr qilingan "Tekst lingvistikasi" nomli qo'llanmasi ushbu masalaga bag'ishlangan dastlabki o'quv qo'llanmasi ekanligi bilan diqqatga sazovor. Bu o'quv qo'llanmada matnning nazariy masalalari, uning maqomi, birliklari, matn turlari, matn tarkibiy qismlari, matn tarkibiy qismini bog'lovchi vositalar kabi qator masalalar yoritilgan". Olim matn haqida gapirar ekan " so'nggi yillarda umumiyl tilshunoslikda yaratilgann ishlarda esa katta bir asarning qism-fragmentlari, qisqa hikoyalari, kichik hajmdagi maqollar , ish qog'ozlari turlari kabilar to'laligicha matn deb nomlana boshlandi" degan fikrlarni aytib o'tishadi. Shuncha izlanishlarga qaramay matn va uning kompozitsiyasi, funksiyasi, komponentlari, tilshunoslikdagi o'rni masalalari bilan bog'liq qarashlar yuzasidan hali bir to'xtamga kelingani yo'q. "Masalan, matnning maqomini belgilash masalasida ham ba'zan turli xil fikrlarga duch kelamiz. Matnning belgilar tabiatini nimalardan iboratligi, matnni nutqiy jarayon deb atash lozimmi yoki matnni nutqiy jarayonning natijasi sifatida talqin etish kerakmi, matnni og'zaki nutq bilan yoki yozma nutq bilan bog'lab o'rganish kerakmi, degan masalalar xususida ham turlicha nuqtai nazarlarni uchratishimiz mumkin".

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Ўзбек тилининг изоҳли луғати.5 жилдик. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 587-б
- 2.<https://lexicography.online/etymology>
- 3.<https://uz.wikipedia.org/wiki/Tekstura>
- 4.Nisanyanadlar.com
5. Мамажонов А.; Абдулпаттоев М. Матн назарияси. – Фаргона, 2016/ Б-5